



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2026

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ермегов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Ольга Кобзева БАРОНЫ РИХТГОФЕНЫ: ИСТОРИКИ И ГЕОГРАФЫ.....	5
2. Oybek Rashidov O‘ZBEKISTON SSRNING TASHKIL TOPISHI.....	15
3. Sevara Pulatova O‘ZBEKISTON MUZEYLARI INNOVATSION RIVOJLANISH YO‘LIDA.....	21
4. Ойдин Маннопова ПЕРИОД СТАБИЛИЗАЦИИ И РОСТА ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО И ИНВЕСТИЦИОННОГО СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ РЕСПУБЛИКОЙ УЗБЕКИСТАН И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИЕЙ (2000 – 2008 гг.).....	27
5. Faxriddin Yormatov ALISHER NAVOIYNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O‘RNI VA DIPLOMATIK QARASHLARI.....	32
6. Feruza Atajanova OLIIY TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR MOHIYATI: YUTUQLAR, KAMCHILIKLAR VA NATIJALAR.....	37
7. Ikrom Djurayev MARKAZIY OSIYODA QADIMGI KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ AHOLINING O‘ZARO MUNOSABATLARI.....	42
8. Muslima Bazarova O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI TADBIRKORLIGINI MOLIYAVIY QO‘LLAB- QUVVATLASHDA BANKLARNING O‘RNI.....	49
9. Diyora Chorshanbiyeva YOSHLARGA OID DAVLAT DASTURLARI VA ULARNING NATIJAVIY TAHLILI.....	56
10. Муродилла Хайдаров ФРЕДЕРИК СТАПП [1] МАРКАЗИЙ ОСИЁНИ ҚАЙТА КАШФ ЭТИБ... [2].....	62
11. Xamro Rahmonov O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA‘MINLASHGA OID DAVLAT SIYOSATI.....	69
12. Umrbek Salayev QADIMGI XORAZM: TARIXIY MANBALAR VA ILMIY TALQINLAR TAHLILI.....	75



Umrbek Kadambayevich Salayev,
Urganch davlat universiteti,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), o'qituvchi
umrbeksalayev25@gmail.com

QADIMGI XORAZM: TARIXIY MANBALAR VA ILMIY TALQINLAR TAHLILI

For citation: Umrbek K. Salayev. ANCIENT KHOREZM: ANALYSIS OF HISTORICAL SOURCES AND SCIENTIFIC INTERPRETATIONS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18700991>

ANNATOTSIYA

Mazkur maqolada Xorazm vohasining qadimgi tarixi, nomining kelib chiqishi hamda tarixiy-geografik va etnomadaniy shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Avesto”, sharq va g'arb manbalari, arab, fors, yunon va xitoy mualliflari asarlaridagi ma'lumotlar qiyosiy o'rganilgan. Shuningdek, arxeologik yodgorliklar, qadimgi qal'alar va madaniy qatlamlar asosida Xorazmda ibtidoiy jamiyatdan shahar-davlatchilikka o'tish bosqichlari yoritiladi. Maqolada tabiat omillari, diniy e'tiqodlar, xususan, zardushtiylikning shakllanishi va uning aholi dunyoqarashiga ta'siri ochib berilgan. Tadqiqot natijalari Xorazm vohasining Markaziy Osiyo sivilizatsiyasidagi o'rnini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, Qadimgi Xorazm, tarixiy manbalar, etnomadaniy jarayonlar, arxeologik yodgorliklar, Ellikqal'a, Tuproqqal'a, zardushtiylik, “Avesto”, qadimgi sivilizatsiya, shahar-davlatchilik, diniy e'tiqodlar.

Умрбек Кадамбаевич Салаев,
Ургенчский государственный университет,
доктор философии по историческим наукам (PhD), преподаватель
umrbeksalayev25@gmail.com

ДРЕВНИЙ ХОРЕЗМ: АНАЛИЗ ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ И НАУЧНЫХ ИНТЕРПРЕТАЦИЙ

АННАЦИЯ

В статье анализируется древняя история Хорезмского оазиса, происхождение его названия, а также процессы историко-географического и этнокультурного формирования региона. В исследовании на основе сравнительного анализа изучены сведения из “Авесты”, а также труды восточных и западных авторов, включая арабские, персидские, греческие и китайские источники. Особое внимание уделено археологическим памятникам, древним крепостям и культурным слоям, отражающим этапы перехода от первобытного общества к городской государственности. Рассматривается влияние природных факторов и религиозных верований, в частности зороастризма, на мировоззрение населения. Полученные результаты позволяют определить место Хорезма в системе цивилизаций Центральной Азии.

Ключевые слова: Хорезмский оазис, Древний Хорезм, исторические источники, этнокультурные процессы, археологические памятники, Элликкала, Топрак-кала, зороастризм, «Авеста», древняя цивилизация, городская государственность, религиозные верования.

Umrbek K. Salaev,
Urgench State University,
Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD), teacher
umrbeksalayev25@gmail.com

ANCIENT KHOREZM: ANALYSIS OF HISTORICAL SOURCES AND SCIENTIFIC INTERPRETATIONS

ABSTRACT

This article analyzes the ancient history of the Khorezm oasis, the origin of its name, and the processes of its historical-geographical and ethno-cultural formation. Based on a comparative approach, the study examines information from the Avesta as well as Eastern and Western sources, including Arab, Persian, Greek, and Chinese authors. Special attention is given to archaeological sites, ancient fortresses, and cultural layers that illustrate the stages of transition from primitive society to urban statehood. The article also explores the influence of natural factors and religious beliefs, particularly Zoroastrianism, on the worldview of the population. The research findings contribute to identifying the role of Khorezm in the development of Central Asian civilizations.

Index Terms: Khorezm Oasis, Ancient Khorezm, Historical Sources, Ethno-Cultural Processes, Archaeological Sites, Ellikqala, Toprak-Kala, Zoroastrianism, Avesta, Ancient Civilization, Urban Statehood, Religious Beliefs.

1. Dolzarbli. Voha va uning tarixi haqida soʻzlaganda bizdan oldingi tarixchilar “Xorazm” soʻziga alohida izoh beradi. Bu oʻlka sirli tarixini dastlab “Avesto”, fors manbalaridan bilib olamiz. “Xorazm” – “Avesto”da “Qayrizon” tarzida berilgan. Nemis arabshunos olimi E.Zaxauning fikricha, qayrizao soʻzi “qayri” oziq-ovqat, “zam” – yer yaʼni “oziq-ovqatga boy mamlakat” [1], degani. Bu soʻz aynan fors tilidan olingan, shunisi maʼlumki Eron davlati Xorazm bilan oʻzaro yaqin qoʻshni boʻlgan. Eronning Xorazm ustida hukumronligi uzoq vaqt saqlanib qolgan. Arablar Oʻrta Osiyoga kirib kelishi bilan bu atama IX asrgacha shu makonga nisbatan xech oʻzgarishsiz qoʻllanilgan. Ahomoniylarning qadimiy Oromiy yozuvi (miloddan avvalgi VI – IV asrlar), Bexustun va Persepol yozuvlarida Xorazm nomi Uvarazm, fors asrlarida Xuvarazmis shaklida qoʻllaniladi. Xvaz (xwar) “past, tuban”, zmi – “zamin, yer” maʼnosida, “pastlikda”, “pasttekistlikda joylashgan yer”, degani[2].

2. Metodlar va oʻrganilganlik darajasi. Baʼzi bir sharqshunos, arabshunos tarixchi va arxeologlar, olimlar bu soʻzni yangi talqinda qoʻllaydi. Misol, Savalev, Grekovlar – Xvar qismini Xurshed “Quyosh”, “oftob” – “Quyoshli oʻlka”, “oftobli yer” desa, Zaxau va Geygerlar Xvar, xurdar – yeyish, unumdor, xosildor yerlar yurti yana Shpigel – Xorazm “Xor-zamin”, “Yomon yer” ham deydi. Vamberi “Xox-razm” – urushga moil, jangavor maʼnosini talqin qiladi. M.N.Bogomolov Xuvarazm (Hu-warazam) shaklida chorva mollarini boqish uchun qulay yerlar, mustahkam qalʼalar bilan qurshalgan oʻlka deb javob bergan[2]. XX asr rus tarixchisi S.P.Tolstov oʻz qarashi bilan “Xorazm” – Xvarri-zmin, yaʼni “xuarri qabilasining yeri”, degan maʼnoni ilgari surgan.

Mahalliy tarixchilar – O.Madraximov va Z.Dosimovlar “Xorazm” soʻzi “Xarri zam” – Xurritlar makoni – yer maʼnosini bildirgan qabila nomi boʻlishini ehtimol qiladi. M.Ermatovni fikricha “Xorazm” nomi “Baliqqa boy yurt”, “Baliqchilar yurti” degan maʼnoga ega.

Oʻrta Osiyolik allomalar Al-Beruniy, Al-Maqsidiy va Gardiziylarning asarlarida Xorazm “goʻsht, oʻtin”, “xvari” – goʻsht, baliq goʻshti, “zm”, “zem” – yer, mamlakat degani. Yana bir kitobda “Xavorazm”, “Xavar” – Sharq, “zim” – yer degan maʼnoni bildirib “Sharq oʻlkasi”, “Quyosh chiqish joyi” deb talqin qilingan [2].

Rashiddin Fazlulloh “Jome‘ at-tavorix” asarida Xorazm-viloyat (mamlakat) sifatida, “Mo‘g‘ullar maxfiy tarixi” asarida Xorazm – urush sababchisi bo‘lgan yurt; mo‘g‘ulona talqinda bu “Tangri hukmiga qarshi chiqish” deb tushuniladi[3].

Shunga o‘xshab Xitoy, Yunon mualliflari ham o‘z talafuzida Xorazm nomini turlicha talaffuz qiladi – Yuegan (yuetsyan), Xosyun, Xolisimi Boli yoki Kolismi – Xitoycha bo‘lsa, Gekatey va Geradot Xorasmiya degan talqinda ifoda qiladi.

Arab sayyohi Muqaddasiy (985) o‘zining “Axzan ut taqsim fi ma‘rifat ul-aqolim” (“Iqlimlarni bilib olishda eng yaxshi taqsimlar”) asarida Sharq podshosining 400 kishidan iborat hizmatchisini 103 forsax uzoq o‘lkaga tashlagani va ularni vaqt o‘tib aynan shu joylarni o‘zlashtirib tirik qolganliklarini ko‘rib-bilib podshoh bu o‘lkani “Xorazm” (go‘sht “xor” – o‘tin “razm”) deb atalsin va yana 400 ta turk qizni shu o‘lkaga olib kelganini yozadi.

Yana bir afsonada Xorazm siyovushiylar sulolasi asoschisi Siyovush – Eron eposi dostonidan, Xorazmga janubdan kirib kelgan va asos solgan. Siyovush so‘zi “Qora boshli”, “Qora sochli” – forsiyda Xorazm ma‘nosini bildiradi [2].

Amir Temur davrida esa Xorazm nomi qudratli, madaniy va strategik hudud timsoli bo‘lgan. Ya‘ni tarixiy-madaniy, siyosiy markaz sifatida tushunilgan. Lekin u “boy, obod, ilm-fan rivojlangan yurt” degan mazmuniy tasavvur bilan qo‘llangan [3].

Maqolada Xorazm tarixiga oid adabiyotlar, tarixiy-taqqosiy yondashuv hamda institutsional o‘zgarishlarni davrlashtirish usullari qo‘llanildi. Ommabob nashrlar, internet ma‘lumotlari, saytlar va suniy intellekt yordamida mavzuga oid sirlil ma‘lumotlar tahlil qilindi.

3. Taqiqot natijalari. Xorazm qumlik, tepalik, cho‘l va ochiq dashtlardan iborat. Amudaryoning Tyanshan, Hindiqush, Pomir (4000 m. balandlik) tog‘laridan vuqor bilan bir necha irmoqlardan iborat 2336 kilometr uzoqlikdagi daryo suvi O‘zbekistonning Surxondaryo viloyati Paqchi tog‘ daralaridan (1336 km) o‘tib, Qizilqum va Qoraqum oralig‘idan tentirab g‘arbiga buriladi, u yerdan ikkita Oqchadaryo o‘ng irmog‘i, Daryoliq va Davdon chap irmoqlariga ajraladi. Voha hayoti ibtidoiy davrdan rivojlangan. Etnik madaniyat shakllanib, shahar-davlatchilik tashkil topgan. Qadim Xorazm vohasining eng baland nuqtasi Amudaryoning o‘ng sohilida joylashgan Sulton Uvays tog‘i – 473 m. [4].

Qadimgi Xorazm makonlaridan dastlabkisi Ellikqal’a, milodimizning III-IV asrlarida odamlar istiqomat qilgan. Bu qal’ani professor S.P.Tolstov o‘zining “Qadimgi Xorazm”, “Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab” nomli asarlarida, “Jeldikqal’a” nomi bilan tilga oladi. “Jeldikqal’a” so‘zi – “Ellikqal’a” so‘zining hozirgi qozoq tilida talaffuzi. Har ikkovi ham “Shabadali qal’a”, “Mayin samolli qal’a” degan ma’noga ega.

Ellikqal’a dahasining g‘arbida Tuproqqal’a – milodiy III asrida Kushon imperiyasidan ajralib, mustaqillikni qo‘lga kiritgan Xorazm poytaxti sifatida IV asrgacha savlat to‘kib turgan.

S.P.Tolstov har ikkala qal’a qadimiy binolarning poydevori qum-g‘isht bilan to‘ldirib qurilganligi, bu esa binoni nam va nam olib keladigan tuz ta’siridan saqlashda qadimgi xorazmliklarga xos usul ekanini takidlagan [3].

Rus tadqiqotchisi yana Oqchadaryo sohilidan Jonbosqal’a-4 neolit davriga oid ibtidoiy jamoa turmush tarziga xos makonni aniqlagan.

Miloddan avvalgi II ming yillikdagi Bronza davri madaniyatiga oid Tozabog‘yob, kechki Suvyorgan va ilk temir davriga xos makonlar Xorazm vohasi tarixida muhim o‘rin tutadi.

Miloddan avvalgi I ming yillik birinchi choragiga xos Amirobod madaniyati, chorvachilikka ixtisoslashgan Kaltaminor madaniyati (miloddan avvalgi III ming yillik), Jonbosqal’a-7 bo‘yi 70 metr bo‘lgan bir-biriga o‘xshash 2 ta tor xonali uylar topilgan.

Akademik Ya.G‘.G‘ulomovning “Xorazmning sug‘orilish tarixi” asari Jonbosqal’ada yashagan aholining “ibtidoiy demokratiya” udumlarining barcha alomatlariga ega ekanligi va ehtimol, harbiy ishlarda ayollarning faol qatnashganliklarini tasdiqlovchi bilvosita dalil bo‘la oladi.

Yana olim Jonbosqal’a-1 va Burgutqal’a vohasida ham aholi juda qadimdan yashab kelganligiga dalillar keltiradi [5].

Xorazm vohasida odamzod qadimdan, ibtidoiy davrdan Sulton Uvays tog‘i hududida Burli-3 manzilgohini o‘ziga makon tutib yashashni boshlagan. Bu makon ovchilari o‘zlariga quyoshni va

olovni e'tiqod qilganlar. Ularning dastlabgi nigohi quyoshga qaragan va uning taftidan ma'naviy quvvat olganlar. Shu sababli qadimdan quyosh va olovga sig'inish boshlangan. Yana bu davr kishilari yomg'ir va qorga, qudratli bo'lgan tabiat hodisalariga mo'l-ko'lchilik, unumdorlik oshadi deb ishinish xisi paydo bo'lgan [6].

Qish va bahor oylarida ikki qo'llarini osmonga ko'tarib yog'ingarchilik bo'lishini so'raganlar. Ajdodlarimiz osmonga, oy va sayyoralarga, ularning harakatlariga qarab turli afsonalar ham to'qiganlar, miflar yaratganlar. Suv, olov, o'simlik, jonivorlar haqidagi dastlabki mifologik tasvurlar paydo bo'lgan [7].

Milodiy I ming yillik boshlaridan Xorazmda Zardushtiylik dini paydo bo'lgan. Bu dinning asosiy g'oyasi Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal. Dinning asoschisi Zardusht bo'lib, bu so'zning ma'nosi "oltin tuya egasi" degani. Muqaddas kitobi "Avesto", ma'nosi "qat'iy qonunlar kitobi". Asar 4 qismdan iborat. 21 ta nasxga bo'linadi. Asosiy ilohi ezgulik hudosi Axuramazda, yovuzlik elchisi Axrimanga qarshu kurashadi. Yana Mitra quyosh xudosi bo'lib, jangavor gurzisini har urganda insoniyatning butun gunohlari parchalanib ketadi. Asarda to'kin-sochinlik ilohi Nohid haqida qarashlar ham bor [8].

"Avesto" 12 ming qoramol terisiga oltin yozuvlar bilan yozilgan. Bu kitob yunon hukumdori Aleksandr Makedonskiy yoki mahalliy tilda Iskandar Zulkarnayn (Ikki shoxli Iskandar) qo'liga tushib, asosiy qismlari Yunonistonga hozirgi Gretsiya hududiga yuborilgan, qolgan diniy qarashlar aks etgan to'plamlari yoqib yuborilgan. Bu din VII asrda arablar bilan islom dini O'rta Osiyoga kirib kelsa ham IX asrgacha muomalada bo'lgan. Hozirgacha ayrim e'tiqod turlari (quyoshga, olovga, suvga topinish, sajda qilish) to'y, marosim va azalarda kuzatiladi [9].

4. Xulosa. Xorazm vohasining tarixiy-geografik xarakteristikasi, geologik tuzilishi va aholi madaniyatida o'ziga xosligi bilan turli davrlarda – turlicha talqin qilingan va asoslab berilgan. Dastlabki shahar va qal'alarning qurilish jarayonlari xususiyatlari bilan milliy shevada talqin qilingan.

Aholi o'lka tabiiy sharoitidan kelib chiqib o'z turmush sharoitini, etnik shakillanishida, o'lka geografik-geologik tuzilishida davom ettirgan.

Asosiy e'tiqodi tabiat hodisalari, quyosh, oy va samodagi yulduzlardan ruhiy quvvat olgan.

Zardushtiylik dinining kirib kelishi bilan Xorazmda yangi ilohlar ezgulik, quyosh, to'kin-sochinlik yoki yovuzlik hudolari nomlari aholi orasida keng tarqalgan. Suvni, tuproqni, havoni va olovni to'rtta unurni muqaddas sanash odati davom etgan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. — Moskva, 1962. (Tolstov, S.P. In Search of the Culture of Ancient Khorezm. Moscow, 1962.)
2. Xorazm tarixi 1-jild. Urganch-1996. -B. 25-26. (History of Khorezm, Volume 1. Urgench-1996. -P. 25-26.)
3. Babajanova, N. A., & Abdullayev, U. I. (2023). The state of urban processes in the Khorezm oasis in the early Middle Ages. *Journal NX*, 9(6), 53–55.
4. Salayev U.K. "Qadimgi Xorazm vohasi ibtidoiy madaniyat tarixi" tarix fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi, Urganch – 2025. (Salaev U.K. "History of the primitive culture of the ancient Khorezm oasis" Doctor of Philosophy (PhD) dissertation in historical sciences, Urgench – 2025.)
5. Т.Қиличев Кўхна қалъалар диёри. – Тошкент: 1993. (T. Kilichev, Land of Ancient Fortresses. – Tashkent: 1993.)
6. Gardiziy. Zayn al-axbor. — Tehron, 1965. (Gardīzī, Abū Sa'īd. Zayn al-Akhhār. Tehran, 1965.)
7. Rashididdin Fazlulloh. Jome' at-tavorix. – Toshkent, 1998. (Rashīd al-Dīn Faḍlallāh. Jāmi' al-Tawārīkh. Tashkent, 1998.)
8. Vamberi A. Markaziy Osiyo tarixi va madaniyati. — London, 1873. (Vambéry, A. History and Culture of Central Asia. London, 1873.)
9. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi. T.: 2006.)Usmanov Q. History of Uzbekistan. T.: 2006.)

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000